
VOLUME 10, OCTOBER 2026
ISSN: 3060-4958







The Lingua Spectrum



UZBEKISTAN STATE WORLD
LANGUAGES UNIVERSITY

MORE INFO:

www.lingvospektr.uz

t.me/thelinguaspectrum

CONTENTS

LINGUISTICS		**4**
Sulaymanova N.J.	A comparative analysis of the cognitive-semantic features of conceptual metaphors in English and Uzbek	5
Allayarova M.T.	Linguocognitive and linguocultural features of figurative toponyms in Uzbek and English	13
Tashpulatova Sh.Z.	Linguopsychological Foundations of the Expression of Mental States in English and Uzbek	20
Rakhimova U.S.	The poetics of the mother image in 19th-century English novels: the interpretation of biological and surrogative motherhood	27
Umarova Sh.I.	Combinatorial properties of collocations	33
Suvanova Kh.B.	Linguocognitive and pragmatic features of female inner speech: a comparative analysis of V. Woolf's "Mrs Dalloway" and O. Hoshimov's "Ikki eshik orasi"	41
Pazilova N.M., Nancy M. Ackles	National-cultural code and the linguistic construction of social identity in Jura Fozil's "The garden": A Linguopragmatic study	48
Saloxiddinov M.Sh.	Article title: cognitive-axiological features and linguocultural representation of the family concept in Uzbek and English	61
Kosheva D.Kh.	Linguocultural analysis of oral discourse: key parameters and methodological cautions	72
Jo'rayeva N.S.	Semantic gradation and stylistic differentiation of verbs expressing smiling in English and Uzbek	81
Abdulkhaeva M.M.	The role of paragraphemic devices in the theoretical and stylistic analysis of written discourse	87
Pazilova N.M., Makhmudova M.N.	Abdurauf Fitrat's term-formation principles and the semantic-functional adaptation of artificial intelligence terms into Uzbek	93
Pazilova N.M., Imomova Z.M.	Speech strategies and gender roles in Abdurauf Fitrat's family discourse: a linguopragmatic analysis of "Oila"	100
Shakurova N.Kh.	National-cultural and cognitive features of the concept "Mother" in English and Uzbek	107
Abdujalilov M.I.	The linguistic nature of lexical units denoting attributes in Uzbek and Russian	117
Chulliyev N.A.	The theoretical foundations of constructing and expressing collective knowledge in political discourse	128
Song D.	Multilingual guided interpretation mechanisms for foreign tourists in living museums: A case study of the Konigil Tourism Village in Samarkand	138

A comparative analysis of the cognitive-semantic features of conceptual metaphors in English and Uzbek

Sulaymanova Nilufar Jabbarovna
nilufarculeymanova@gmail.com
DSc, Professor,
Samarkand State Institute of Foreign Languages

Annotation *The article presents a comparative cognitive-semantic study of conceptual metaphor as one of the fundamental categories of cognitive linguistics based on English and Uzbek linguistic material. Particular attention is paid to the ways reality is conceptualized through linguistic units, the representation of human experience by means of metaphorical models, and the mechanisms underlying the formation of linguistic worldviews in different linguocultural communities. Universal and culture-specific characteristics of conceptual metaphors associated with time, life, emotions, success, difficulties, knowledge, interpersonal relations, and space are compared in English and Uzbek. The study employs conceptual, comparative-typological, cognitive-semantic, and contextual methods of analysis. The findings demonstrate that numerous metaphorical models in both languages derive from universal bodily and cognitive experience, whereas their linguistic realization is substantially influenced by national culture, traditions, values, and social experience. The same conceptual source domain may therefore receive different lexical and phraseological representations in English and Uzbek. Comparative analysis also reveals similarities and differences in the semantic organization of metaphorical expressions. The study emphasizes that conceptual metaphors reflect the interaction between language, cognition, culture, and human experience.*

Keywords *Cognitive linguistics, conceptual metaphor, cognitive semantics, source domain, target domain, linguistic worldview*

Ingliz va o‘zbek tillarida konseptual metaforalarning kognitiv-semantik xususiyatlarining qiyosiy tahlili

Sulaymanova Nilufar Jabbarovna
nilufarculeymanova@gmail.com
DSc, professor,
Samarqand davlat chet tillar instituti

Annotatsiya *Ushbu maqolada kognitiv tilshunoslikning asosiy kategoriyalaridan biri bo‘lgan konseptual metafora hodisasi ingliz va o‘zbek tillari materiallari asosida qiyosiy-kognitiv jihatdan tadqiq etiladi. Til birliklarida voqelikning konseptuallashuvi, inson tajribasining metaforik modellar vositasida ifodalanishi hamda turli lisoniy jamoalarga xos olam manzarasining shakllanish mexanizmlari tahlil qilinadi. Ingliz va o‘zbek tillarida vaqt, hayot, his-tuyg‘u, muvaffaqiyat, qiyinchilik, bilim, inson munosabatlari va makon bilan bog‘liq konseptual metaforalarning universal hamda milliy-madaniy xususiyatlari qiyoslanadi. Tadqiqotda konseptual tahlil, qiyosiy-tipologik, kognitiv-semantik va kontekstual tahlil usullaridan foydalaniladi. Tahlil natijalari ikki tildagi metaforik modellarning muayyan qismi insonning universal jismoniy va kognitiv tajribasiga asoslanishini ko‘rsatadi. Ayrim metaforik modellarning verballashuvida esa milliy madaniyat, an’ana, qadriyat va ijtimoiy tajriba muhim ahamiyat kasb etishi aniqlanadi. Ingliz va o‘zbek tillarida bir xil*

konseptual manba sohasi turli leksik-frazeologik vositalar orqali ifodalanishi ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, metaforik birliklarning semantik mazmuni, ularning kontekstda namoyon bo‘lish xususiyatlari va madaniy asoslari qiyosiy jihatdan yoritiladi. Konseptual metaforalarni qiyosiy o‘rganish ikki tilning lisoniy olam manzarasidagi umumiy kognitiv qonuniyatlar va milliy-madaniy farqlarni aniqlash, shuningdek, til, tafakkur va madaniyat o‘rtasidagi uzviy munosabatlarni chuqurroq ochib berish imkonini berishi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar *Kognitiv tilshunoslik, konseptual metafora, kognitiv semantika, manba soha, maqsad soha, lisoniy olam manzarasi*

Сопоставительный анализ когнитивно-семантических особенностей концептуальных метафор в английском и узбекском языках

Сулайманова Нилуфар Жаббаровна
nilufarculeymanova@gmail.com
Доктор наук (DSc), профессор,
Самаркандский государственный
институт иностранных языков

Аннотация *В статье проводится сопоставительное когнитивно-семантическое исследование концептуальной метафоры как одной из основных категорий когнитивной лингвистики на материале английского и узбекского языков. Анализируются способы концептуализации действительности в языковых единицах, механизмы репрезентации человеческого опыта посредством метафорических моделей и особенности формирования языковой картины мира различных лингвокультурных сообществ. Сопоставляются универсальные и национально-культурные характеристики концептуальных метафор времени, жизни, эмоций, успеха, трудностей, знания, человеческих отношений и пространства в английском и узбекском языках. Используются методы концептуального, сопоставительно-типологического, когнитивно-семантического и контекстуального анализа. Установлено, что значительная часть метафорических моделей двух языков обусловлена универсальным телесным и когнитивным опытом человека, тогда как особенности их языковой реализации определяются культурой, традициями, ценностями и социальным опытом соответствующего народа.*

Ключевые слова *Когнитивная лингвистика, концептуальная метафора, когнитивная семантика, сфера-источник, сфера-цель, языковая картина мира*

Kognitiv tilshunoslik zamonaviy tilshunoslikning inson, til va tafakkur munosabatlarini yagona tizim doirasida o‘rganuvchi yetakchi yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuvda til faqat axborot uzatish yoki obyektiv voqelikni nomlash vositasi sifatida emas, balki insonning borliq haqidagi bilimlarini shakllantirish,

tizimlashtirish, saqlash va ifodalash mexanizmi sifatida talqin etiladi. Shu nuqtayi nazardan tildagi har qanday semantik hodisa ortida inson tajribasi, uning voqelikni idrok etish usuli va muayyan madaniy muhitda shakllangan bilim tizimi mavjud bo'ladi. Kognitiv tilshunoslikning markaziy tushunchalari bo'lgan konsept, kategoriyalashtirish, konseptuallashtirish, freym, ssenariy, prototip va konseptual metafora til bilan tafakkur o'rtasidagi murakkab munosabatlarni tushuntirish imkonini beradi (Lakoff & Johnson, 1980; 17-18; Evans & Green, 2006; 12-15).

Kognitiv yondashuv til birliklarining ma'nosini tayyor va o'zgarmas semantik hodisa sifatida emas, balki insonning kognitiv faoliyati bilan bog'liq dinamik tuzilma sifatida ko'radi. R. Langaker ta'kidlaganidek, til strukturalari insonning umumiy kognitiv qobiliyatlaridan ajralgan holda mavjud emas; grammatik va leksik ma'nolar ham konseptuallashtirish jarayonining muayyan ko'rinishlaridir (Langacker, 1987; 5-7). Bunday qarash tillararo qiyosiy tadqiqotlar uchun ayniqsa muhim. Chunki ikki tilda bir xil yoki yaqin obyektiv voqelik turlicha konseptuallashtirilishi, kategoriyalashtirilishi va verballashtirilishi mumkin.

Qiyosiy tilshunoslikda an'anaviy ravishda fonetik, leksik, grammatik va frazeologik tizimlarning o'xshash hamda farqli jihatlari aniqlangan bo'lsa, kognitiv paradigma qiyos obyektini yanada kengaytirdi. Endi tillararo tadqiqotda faqat shakl va ma'no emas, balki ushbu ma'nolarning ortida turgan konseptual modellar ham qiyoslanadi. Masalan, ingliz tilidagi *time flies, save time, waste time, spend time* kabi birliklar vaqtning harakatlanuvchi obyekt yoki qimmatli resurs sifatida konseptuallashtirilishini ko'rsatadi. O'zbek tilida vaqt uchib o'tdi, vaqtni tejamoq, vaqtni bekor o'tkazmoq, vaqtni sarflamoq kabi birliklar ham shunga yaqin kognitiv modellarni namoyon etadi. Bu holat inson tajribasidagi umumiy kognitiv mexanizmlarning turli tillarda parallel ifodalanishidan dalolat beradi.

Konseptual metafora nazariyasining shakllanishida J. Lakoff va M. Jonsonning ilmiy qarashlari alohida o'rin tutadi. Olimlar metaforani faqat badiiy nutqqa xos uslubiy vosita emas, balki inson tafakkurining fundamental mexanizmi sifatida talqin qiladilar. Ularning fikricha, inson bir konseptual sohani boshqa konseptual soha orqali anglaydi; bunda nisbatan aniq, hissiy tajribaga yaqin soha abstraktroq hodisani tushunish uchun kognitiv asos vazifasini bajaradi (Lakoff & Johnson, 1980; 3-6). Shu tariqa, konseptual metaforada ikki asosiy komponent – manba soha (source domain) va maqsad soha (target domain) o'zaro munosabatga kirishadi.

Masalan*, Life is a journey – hayot sayohatdir* konseptual modelida safar manba soha, hayot esa maqsad soha hisoblanadi. Safarga xos yo'l, manzil, to'siq, yo'nalish, hamroh, ortga qaytish, oldinga harakatlanish kabi tushunchalar inson hayotini anglash uchun kognitiv model vazifasini bajaradi. Ingliz tilida *life is a journey, choose your path, we have come a long way, he is at a crossroads in his life, move forward in life* kabi ifodalar ushbu modelni verballashtiradi. O'zbek tilida esa *hayot yo'li, hayotda o'z yo'lini topmoq, uzoq yo'lni bosib o'tmoq, hayot chorrahasida qolmoq, oldinga intilmoq, yo'li ochiq bo'lmoq* kabi birliklar mavjud. Ikki tildagi o'xshashlik insonning makonda harakatlanish tajribasi hayot jarayonini konseptuallashtirish uchun universal kognitiv asoslardan biri ekanini ko'rsatadi.

Biroq metaforik modelning umumiyligi uning lisoniy ifodasi to'liq bir xil bo'lishini anglatmaydi. Masalan, o'zbek tilida *yo'li ochiq, yo'lingiz oq bo'lsin, yo'li to'sildi, yo'ldan urmoq* kabi birikmalar nafaqat harakat, balki taqdir, omad, axloqiy me'yor va ijtimoiy munosabatlar haqidagi madaniy tasavvurlarni ham ifodalaydi. Ingliz tilida *clear the way, get in someone's way, lose one's way, go one's own way* kabi o'xshash fazoviy modellar mavjud bo'lsa-da, ularning pragmatik va madaniy assotsiatsiyalari har doim ham o'zbekcha birliklarga to'liq mos kelmaydi. Demak, konseptual darajadagi

o‘xshashlik leksik-frazeologik darajada mutlaq ekvivalentlikni kafolatlamaydi.

Insonning vertikal makon haqidagi tajribasi ham ikki tilda ko‘plab abstrakt konseptlarni shakllantiradi. J. Lakoff va M. Jonson bunday modellarni orientatsion metaforalar sifatida izohlaydi (Lakoff & Johnson, 1980; 14-21). *Good is up / bad is down, happy is up / sad is down, high status is up / low status is down* kabi kognitiv modellar ingliz tilida *high spirits, cheer up, feel down, fall into depression, rise to power, high position* kabi birliklarda kuzatiladi. O‘zbek tilida kayfiyati ko‘tarildi, ruhi tushdi, tushkunlikka tushdi, martabasi ko‘tarildi, yuqori lavozim, obro‘si tushdi kabi ifodalar aynan shu vertikal kognitiv sxemaning mavjudligini ko‘rsatadi.

Bu o‘xshashlik tasodifiy emas. Inson tanasining vertikal holati, sog‘lom va faol insonning tik turishi, kasallik yoki ruhiy tushkunlikda esa harakat va gavda holatining pasayishi kabi tajribalar metaforik konseptuallashtirishning jismoniy asosini tashkil etadi. M.Jonson bunday kognitiv tuzilmalarni obraz-sxemalar bilan bog‘laydi (Johnson, 1987; 18-23). *Up-down, in-out, front-back, center-periphery, source-path-goal* kabi obraz-sxemalar insonning tana va makon bilan munosabatidan shakllanadi hamda keyinchalik abstrakt tushunchalarni anglashga ko‘chiriladi.

Ingliz va o‘zbek tillarida his-tuyg‘ularning konseptuallashuvi ham qiziqarli qiyosiy material beradi. *Anger is heat – g‘azab issiqlikdir* modeli ingliz tilida *boiling with anger, his blood boiled, hot-tempered, let off steam* kabi birliklarda ifodalanadi. O‘zbek tilida *qoni qaynadi, jahli chiqdi, ichi qizidi, g‘azabi qaynadi* kabi ifodalar ushbu konseptual bog‘lanishning mavjudligini ko‘rsatadi. Ikkala tilda ham kuchli g‘azab organizmda haroratning oshishi, qon aylanishining tezlashishi kabi fiziologik holatlar bilan bog‘langanligi uchun metaforik model umuminsoniy tajribaga tayanadi.

Shu bilan birga, his-tuyg‘ularni ifodalashda milliy-madaniy xususiyatlar ham namoyon bo‘ladi. O‘zbek tilida *yuragi ezildi, yuragi siqildi, yuragi orqasiga tortdi, yuragi yorilgudek bo‘ldi, ko‘ngli tog‘dek ko‘tarildi, ko‘ngli cho‘kdi* kabi birliklarda yurak va ayniqsa ko‘ngil konseptlari emotsional tajribaning muhim markazi hisoblanadi. Ingliz tilida heart ham his-tuyg‘ular bilan faol bog‘lanadi: *broken heart, from the bottom of my heart, lose heart, take heart*. Biroq o‘zbekcha ko‘ngilning semantik-kognitiv qamrovi ingliz tilida bitta leksema bilan to‘liq ifodalanmaydi. Kontekstga qarab u *heart, mind, mood, feeling, desire, spirit* kabi turli vositalar orqali berilishi mumkin. Bu holat ikki til konseptosferasi o‘rtasidagi asimmetriyani namoyon qiladi.

Kognitiv qiyoslashda somatik komponentli frazeologizmlar ayniqsa muhim material hisoblanadi. Chunki inson tanasi dunyoni anglashning eng qadimiy va bevosita manbalaridan biridir. Masalan, ingliz tilida *keep an eye on, turn a blind eye, open one's eyes, see eye to eye* kabi birliklarda ko‘z bilish, nazorat qilish, anglash va munosabat konseptlari bilan bog‘lanadi. O‘zbek tilida *ko‘z-quloq bo‘lmoq, ko‘z yummoq, ko‘zi ochildi, ko‘zi yetmoq, ko‘zga tashlanmoq* kabi birliklar ham ko‘rish a’zosining fizik funksiyasidan abstrakt kognitiv sohalarga semantik ko‘chishni namoyon etadi.

Knowing is seeing – bilish ko‘rishdir konseptual modeli ikki tilda ham mahsuldor. Ingliz tilida *I see what you mean, look at the problem differently, a clear explanation, his ideas are obscure* kabi birliklar tushunish jarayonini vizual idrok orqali konseptuallashtiradi. O‘zbek tilida masalaning mohiyatini ko‘rmoq, ko‘zi ochilmoq, ravshan bo‘lmoq, aniq ko‘rsatmoq kabi ifodalar ham bilim va ko‘rish sohalarining konseptual aloqasini ko‘rsatadi.

Bilim konseptining boshqa muhim modeli *Mind is a container – ong/tafakkur idishdir* tarzida namoyon bo‘ladi. Ingliz tilida fill your mind with ideas, keep something in mind, get something out of your mind, an empty mind kabi birliklarda ong ma’lumot saqlanadigan makon sifatida tasavvur qilinadi. O‘zbek tilida *xayoliga keldi, yodida saqladi, boshiga fikr keldi, miyasiga quymoq, esidan chiqarmoq* kabi birliklar aynan bir xil bo‘lmasa-

da, bilimning inson ichki makonida joylashishi yoki undan chiqishi haqidagi konseptual modelni aks ettiradi.

Vaqt konsepti ikki tilning kognitiv tizimida alohida ahamiyatga ega. Ingliz tilida vaqt iqtisodiy resurs sifatida juda faol konseptuallashadi: *spend time, save time, waste time, invest time, budget your time*. Bu birliklar *Time is money / time is a valuable resource* modelini hosil qiladi (Lakoff & Johnson, 1980; 7-9). O'zbek tilida ham vaqtni sarflamoq, vaqtni tejamoq, vaqtni bekorga ketkazmoq, vaqtini ayamoq kabi birikmalar mavjud. Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy hayot ta'sirida ushbu model o'zbek tilida ham faol qo'llanadi.

Biroq vaqtning milliy-madaniy konseptuallashuvi faqat iqtisodiy model bilan cheklanmaydi. O'zbek tilida *har narsaning o'z vaqti bor, vaqti-soati keldi, zamona zayli, payt poylamoq* kabi ifodalar vaqtni ijtimoiy va taqdiriy jarayonlar bilan bog'laydi. Ingliz tilida *time will tell, the right time, bide one's time, in due course* kabi birliklar o'xshash ma'no munosabatlarini ifodalaydi. Shunga qaramay, har bir birlikning madaniy assotsiatsiyasi va diskursiv qo'llanishi tegishli til jamoasining tarixiy tajribasi bilan belgilanadi.

Ingliz va o'zbek tillarida muvaffaqiyat konsepti ham harakat va vertikallik orqali ifodalanadi. Ingliz tilida *climb the career ladder, reach the top, rise to success, move ahead kabi birliklar success is up* va *success is forward movement* modellarini namoyon qiladi. O'zbek tilida *yuqori cho'qqilarni zabt etmoq, martabasi ko'tarilmoq, oldinga chiqmoq, yuksak natijaga erishmoq* kabi ifodalar mavjud. Bu misollarda ham makon insonning ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishini anglash uchun asosiy manba sohalardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Qiyinchilik konseptida esa harakatga to'sqinlik qiluvchi jism yoki yuk modeli yetakchilik qiladi. Ingliz tilida *face an obstacle, overcome difficulties, a heavy burden, carry the weight of responsibility* kabi birliklar qiyinchilikni to'siq yoki og'ir yuk sifatida konseptuallashtiradi. O'zbek tilida *to'siqni yengib o'tmoq, og'ir yukni yelkasiga olmoq, mas'uliyat yuki, qiyinchilikni boshdan kechirmoq* kabi ifodalar shu modellarga yaqin. Demak, insonning fizik harakat, og'irlik va qarshilik bilan bog'liq tajribasi ijtimoiy-psixologik muammolarni konseptuallashtirishda universal manba vazifasini bajaradi.

Kognitiv metaforalarning milliy xususiyatini aniqlashda tabiat va turmush tarzi bilan bog'liq obrazlar ham muhim. O'zbek lingvomadaniyatida *oq yo'l, dasturxoni ochiq, rizqi butun, baraka topmoq, ildiz otmoq* kabi birliklar muayyan madaniy bilimlar tizimiga tayanadi. Masalan, oq yo'l birikmasida rang va makon konseptlari birlashib, ezgu tilak, omad va xavfsiz harakat ma'nosini hosil qiladi. Uni ingliz tiliga so'zma-so'z *white road* tarzida tarjima qilish konseptual mazmunni bermaydi; kontekstga qarab *good luck* yoki *have a safe journey* kabi funksional ekvivalent talab qilinadi. Bu esa metaforalarni qiyoslashda leksik shakldan tashqari konseptual va pragmatik mazmunni hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Ingliz tilida ham muayyan madaniy tajriba bilan bog'liq metaforik birliklar mavjud. *A level playing field, move the goalposts, hit below the belt, the ball is in your court* kabi ifodalar sportga oid manba sohalar orqali ijtimoiy munosabatlar va qaror qabul qilish jarayonlarini konseptuallashtiradi. O'zbek tilida ularning to'liq obrazli ekvivalenti har doim mavjud emas. Tarjimada teng sharoit, shartlarni o'zgartirib yubormoq, nopok usuldan foydalanmoq, endi qaror sizga bog'liq kabi mazmuniy ifodalar qo'llanishi mumkin. Bunda manba sohadagi sport obrazi yo'qolishi, maqsad sohaning ma'nosi esa saqlanishi mumkin.

Mazkur holat konseptual ekvivalentlik va lisoniy ekvivalentlik bir xil tushuncha emasligini ko'rsatadi. Ikki tilda bir xil konseptual model mavjud bo'lib, uning ifoda vositalari farq qilishi mumkin; aksincha, tashqi shaklan o'xshash metaforalar turli madaniy konnotatsiyalarga ega bo'lishi mumkin. Shuning uchun qiyosiy kognitiv tadqiqotda kamida uch darajani farqlash maqsadga muvofiq: konseptual

model darajasi, leksik-frazeologik realizatsiya darajasi va lingvomadaniy-pragmatik mazmun darajasi.

Freym semantikasi ham ingliz va o‘zbek tillarini kognitiv qiyoslashda muhim nazariy asoslardan biridir. Ch. Fillmorning fikricha, so‘z ma’nosini uning ortida turgan muayyan bilim strukturasi – freymsiz to‘liq anglash mumkin emas (Fillmore, 1982; 111-137). Masalan, ingliz tilidagi *wedding* va o‘zbek tilidagi to‘y leksemalari umumiy jihatdan nikoh marosimi bilan bog‘lanishi mumkin, ammo o‘zbekcha to‘y konsepti nikohdan tashqari sunnat to‘yi, beshik to‘yi va boshqa ijtimoiy marosimlarni ham qamrab olishi mumkin. Demak, lug‘aviy ekvivalentlar ortidagi freymlar hajmi va ichki tuzilishi farqlanadi.

Xuddi shuningdek, o‘zbek tilidagi mahalla konsepti va ingliz tilidagi neighbourhood leksemasi o‘rtasida qisman semantik moslik mavjud bo‘lsa-da, ularning kognitiv freymlari bir xil emas. Mahalla o‘zbek madaniy tajribasida hududiy birlikdan tashqari qo‘shnichilik, ijtimoiy nazorat, o‘zaro yordam, marosimlar, jamoaviy munosabatlar va institutsional funksiyalar bilan bog‘langan keng bilim strukturasini faollashtiradi. Neighbourhood esa muayyan kontekstlarda ushbu belgilarning faqat bir qismini qamrab olishi mumkin. Bunday misollar qiyosiy kognitiv tilshunoslikda lakunarlik hodisasini ham muhim tadqiqot obyektiga aylantiradi.

Konseptual metafora va freymlar o‘rtasida ham uzviy bog‘liqlik mavjud. Metafora bir freymga xos elementlarni boshqa konseptual sohaga ko‘chiradi. Argument is war modelida bahs maqsad soha bo‘lsa, urush freymi manba soha vazifasini bajaradi. Ingliz tilida attack an argument, defend a position, win an argument, shoot down an idea kabi ifodalar mavjud. O‘zbek tilida fikriga hujum qilmoq, o‘z pozitsiyasini himoya qilmoq, bahsda g‘olib chiqmoq, dalilini yo‘qqa chiqarmoq kabi birliklarda ham urush va raqobat freymi faollashadi. Biroq bahs madaniyati, muloqot normalari va ijtimoiy ierarxiya turlicha bo‘lganligi uchun mazkur metaforalarning pragmatik chastotasi va diskursiv vazifalari farqlanishi mumkin.

Kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan kategoriyalashtirish ham qiyosiy tadqiqot uchun muhimdir. An’anaviy yondashuvda kategoriya a’zolari umumiy belgilar asosida teng maqomda qaralgan bo‘lsa, prototip nazariyasi kategoriyaning markaziy va periferik a’zolari mavjudligini ko‘rsatadi. E.Rosh tadqiqotlari inson kategoriyalari ko‘p hollarda qat’iy chegaralar emas, balki prototipik tuzilish asosida tashkil topishini asoslagan (Rosch, 1978; 27-48). Bu nazariya turli tillarda rang, qarindoshlik, o‘simlik, hayvon, his-tuyg‘u va ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi kategoriyalarni qiyoslashda katta ahamiyatga ega.

Masalan, ingliz tilidagi family va o‘zbek tilidagi oila asosan bir-biriga ekvivalent deb qaralsa-da, ular bilan bog‘liq prototipik tasavvurlar madaniy jihatdan farq qilishi mumkin. O‘zbek lingvomadaniyatida oila konsepti keng qarindoshlik munosabatlari, avlodlararo aloqa, kattalarga hurmat va jamoaviy mas’uliyat kabi belgilar bilan kuchli bog‘langan. Inglizzabon madaniyatlarning barchasini bir xil deb umumlashtirish mumkin emas, ammo ayrim diskurslarda family yadroviy oila modeli bilan kuchliroq bog‘lanishi mumkin. Shuning uchun qiyosiy tahlilda til fakti bilan madaniyat haqidagi umumlashtirishni farqlash, xulosani konkret korpus yoki kontekst materiallari asosida berish zarur.

Ingliz va o‘zbek tillarida harakat fe’llarining metaforik kengayishi ham kognitiv qonuniyatlarni namoyon etadi. Ingliz tilida *fall in love, fall into despair, run a company, grasp an idea* kabi birliklarda jismoniy harakat yoki harakatga yaqin faoliyat abstrakt jarayonlarga ko‘chiriladi. O‘zbek tilida *sevgiga tushmoq, tushkunlikka tushmoq, ishni yuritmoq, fikrni jamlab olmoq* kabi ifodalarda ham shunga o‘xshash mexanizm kuzatiladi. Ayrim hollarda hatto harakat yo‘nalishi mos keladi: inglizcha *fall into depression* va o‘zbekcha tushkunlikka tushmoq vertikal pastga harakatni salbiy psixologik holat bilan bog‘laydi.

Shu bilan birga, tilning grammatik tuzilishi metaforik modellarning lisoniy namoyon bo'lishiga ta'sir qiladi. Ingliz tili analitik xususiyatlari kuchli bo'lgan til sifatida predloglar va frazali fe'llar orqali fazoviy sxemalarni faol ifodalaydi: *fall into, get over, move on, break out, go through*. O'zbek tili agglutinativ til bo'lganligi sababli kelishik qo'shimchalari, ko'makchilar va qo'shma fe'llar orqali shunga o'xshash munosabatlarni ifodalaydi: *tushkunlikka tushmoq, qiyinchilikdan o'tmoq, muammodan chiqmoq, oldinga bormoq*. Bu farq konseptual mazmun bilan uning grammatik kodlanishi o'rtasidagi munosabatni ochib beradi.

Metaforalarning qiyosiy kognitiv tahlili tarjimashunoslik uchun ham muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Tarjimon metaforik birlikni faqat lug'aviy darajada emas, uning ortidagi konseptual model nuqtayi nazaridan ham anglashi zarur. Agar ikki tilda bir xil konseptual metafora mavjud bo'lsa, obrazni saqlash imkoniyati yuqori bo'ladi. Masalan, *waste time – vaqtni bekorga sarflamoq, heart of stone – tosh yurak, open one's eyes – ko'zini ochmoq* kabi birliklarda konseptual moslik sezilarli. Ammo milliy-madaniy metaforalarda funksional yoki pragmatik ekvivalentni tanlash talab etiladi.

Qiyosiy tahlil natijalari konseptual metaforalarni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkinligini ko'rsatadi. Birinchi guruhga konseptual va lisoniy jihatdan yuqori darajada mos keladigan modellar kiradi: *life is a journey, happy is up, difficulties are obstacles, knowing is seeing*. Ikkinchi guruhda konseptual model umumiy, ammo uning lisoniy realizatsiyasi turlicha bo'ladi. Uchinchi guruhni esa muayyan madaniy tajriba bilan chambarchas bog'langan va boshqa tilda to'liq konseptual ekvivalentga ega bo'lmagan modellar tashkil etadi. Bunday tasnif ingliz va o'zbek tillarida metaforik konseptuallashtirishning universallik va milliylik nisbatini aniqlash imkonini beradi.

Kognitiv yondashuv qiyosiy tilshunoslikning vazifasini ham kengaytiradi. Bunda tadqiqotchi "ikki tilda qaysi birliklar bir-biriga mos?" degan savol bilan cheklanmaydi. "Nima uchun bu tillarda muayyan hodisa aynan shu tarzda ifodalangan?", "Qaysi kognitiv model ushbu ifodaga asos bo'lgan?", "Mazkur model universal jismoniy tajribaga yoki milliy madaniy tajribaga tayanadimi?", "Bir tildagi konseptual tuzilma ikkinchi tilda qanday qayta tashkil etiladi?" kabi savollar markaziy ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtayi nazardan, ingliz va o'zbek tillarini kognitiv qiyoslash faqat nazariy tilshunoslik uchun emas, balki xorijiy til o'qitish, tarjima, leksikografiya va madaniyatlararo kommunikatsiya uchun ham ahamiyatlidir. Chet tilini o'rganuvchi shaxs alohida so'z va grammatik konstruksiyalarni o'zlashtirish bilan cheklanmay, mazkur til sohiblarining voqelikni qanday konseptuallashtirishini ham anglashi lozim. Masalan, idiomalarni so'zma-so'z yodlashdan ko'ra ularni umumiy konseptual metafora asosida guruhlash o'quvchiga bir qator birliklarni yagona kognitiv model doirasida tushunish imkonini beradi.

Kognitiv qiyosiy tahlil leksikografiyada ham yangi imkoniyatlarni ochadi. An'anaviy ikki tilli lug'atlarda leksemaning tarjima ekvivalenti keltiriladi, ammo uning konseptual freymi yoki madaniy konnotatsiyalari doimo ham ochib berilmaydi. Kognitiv prinsiplarga asoslangan inglizcha-o'zbekcha lug'atlarda leksik birliklarning konseptual sohasi, prototipik ma'nosi, metaforik kengayishlari va madaniy xususiyatlarini ko'rsatish til o'rganuvchilar uchun samarali bo'lishi mumkin.

Umuman, ingliz va o'zbek tillaridagi konseptual metaforalarni qiyosiy o'rganish til, tafakkur va madaniyat munosabatlarining murakkab tabiatini ochib beradi. Tahlildan ma'lum bo'ladiki, ikki tildagi ko'plab metaforik modellar insonning umumiy jismoniy tajribasiga tayanadi. Makonda yuqori va pastni idrok etish, harakatlanish, yo'l bosish, to'siqni yengish, jismlarni konteyner ichida tasavvur qilish, ko'rish va bilish o'rtasida aloqa o'rnatish kabi tajribalar universal kognitiv sxemalarni shakllantiradi. Shu sababli hayot – safar, yaxshi

– yuqori, bilish – ko‘rish, qiyinchilik – to‘siq kabi modellarning ingliz va o‘zbek tillarida parallel namoyon bo‘lishi tabiiy holdir.

Biroq universal kognitiv asoslar tillarda mutlaq bir xil lisoniy manzarani yuzaga keltirmaydi. Har bir til jamoasining tarixiy taraqqiyoti, ijtimoiy tuzilishi, urf-odatlari, qadriyatlari, tabiiy muhiti va kommunikativ an’analari konseptual modellarning leksik-frazeologik shakllanishiga ta’sir qiladi. Shu sababli o‘zbek tilidagi *ko‘ngil, mahalla, oq yo‘l, baraka* singari birliklar yoki ingliz tilida muayyan sport va boshqa madaniy freymlarga asoslangan iboralarning konseptual mazmuni ikkinchi tilda bitta leksik ekvivalent bilan to‘liq berilmasligi mumkin.

Tadqiqot asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, ingliz va o‘zbek tillarini qiyosiy-kognitiv o‘rganishda leksik ekvivalentlikdan konseptual ekvivalentlikka o‘tish zarur. Birliklarning tashqi shaklidagi o‘xshashlik yoki farqning o‘zi yetarli emas; ularning ortidagi manba va maqsad sohalar, obraz-sxemalar, freymlar, prototiplar va madaniy bilimlar tizimi ham hisobga olinishi lozim. Konseptual metafora shu ma’noda ikki tildagi lisoniy olam manzarasini qiyoslashning samarali vositalaridan biri hisoblanadi.

Ingliz va o‘zbek tillarida konseptual metaforalarning qiyosiy tahlili, bir tomondan, inson tafakkurining universal kognitiv mexanizmlarini aniqlashga, ikkinchi tomondan, har bir tilning milliy-madaniy xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Kelgusida mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlarni katta hajmli parallel va milliy korpuslar asosida olib borish, metaforik modellarning chastotasi, diskursiv taqsimlanishi va janrlarga ko‘ra farqlarini statistik tahlil qilish maqsadga muvofiq. Shuningdek, badiiy, siyosiy, ta’limiy, tibbiy va raqamli media diskurslarida konseptual metaforalarni alohida qiyoslash ingliz va o‘zbek tillarining kognitiv tizimi haqida yanada aniq va empirik asoslangan xulosalar chiqarish imkonini beradi.

References:

1. Evans, V., & Green, M. (2006). *Cognitive linguistics: An introduction*. Edinburgh University Press.
2. Fillmore, C. J. (1982). Frame semantics. In The Linguistic Society of Korea (Ed.), *Linguistics in the morning calm*. 111–137. Hanshin Publishing.
3. Johnson, M. (1987). *The body in the mind: The bodily basis of meaning, imagination, and reason*. University of Chicago Press.
4. Lakoff, G. (1987). *Women, fire, and dangerous things: What categories reveal about the mind*. University of Chicago Press.
5. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors we live by*. University of Chicago Press.
6. Langacker, R. W. (1987). *Foundations of cognitive grammar: Vol. 1. Theoretical prerequisites*. Stanford University Press.
7. Rosch, E. (1978). Principles of categorization. In E. Rosch & B. B. Lloyd (Eds.), *Cognition and categorization*. 27–48. Lawrence Erlbaum Associates.